

NORIN TUMANI ETNOGRAFIYASIGA BIR NAZAR

O.U. Solijonov

O‘zbekiston milliy universiteti Tarix fakultetining
“Amaliy etnologiya” laboratoriyasi stajyor-tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yurtimizning boy etnografik hududlaridan biri Norin tumani aholisining etnografiyasini haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: etnoslar, “ikki daryo oralig‘idagi qishloq”, antik davr manzilgohi, Uchtepa manzilgohi, turar-joylar transformatsiyasi, millatlararo totuvlik.

A LOOK AT THE ETHNOGRAPHY OF THE NORIN DISTRICT

ABSTRACT

This article briefly describes the ethnography of Norin district where one of the rich ethnographic regions of our country.

Keywords: ethnicities, a village between two rivers, ancient settlement, the monument of Uchtepa, residential transformation, international harmony.

Istiqlol yillarida tariximizni haqqoniy o‘rganish ishlari keng miqyosda olib borilmoqda. Bunda yurtimiz hududlarini alohida viloyat yoki alohida tuman miqyosida etnografik jihatdan o‘rganish ham bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Namangan viloyatining Norin tumani ham o‘zining boy tarixi, ko‘p asrlardan beri turli etnoslar va millatlarga makon bo‘lib kelyotganligi, bu yerdan o‘tmishda madaniy aloqalarning rivojida muhim rol o‘ynagan savdo yo‘llarining o‘tganligi tufayli hududni etnografik jihatdan o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga molik mavzulardan biri hisoblanadi.

Norin tumani Namangan viloyatining janubi-sharqida joylashgan bo‘lib, 1926-yil 29-sentabrda tuman sifatida tashkil etilgan. 1962-1973-yillarda va 1988-1989-yillarda Uchqo‘rg‘on tumani tarkibida bo‘lgan. U g‘arbdan viloyatning Namangan va Uychi, shimolidan Uchqo‘rg‘on tumanlari, janubiy va sharqdan Andijon viloyatining Baliqchi va Izboskan tumanlari bilan chegaradosh. Tuman markazi Haqqulobod shahri bo‘lib¹, tumanda bugungi kunda 173 mingga yaqin aholi istiqomat qilib kelmoqda². Aholisi

¹ ЎзМЭ. Биринчи жилд. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энсиклопедияси”Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б.299.

² Norin tumani statistika bo‘limi ma’lumotlari.

asosan o‘zbeklar, undan tashqari qirg‘izlar, koreyslar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa 10 ga yaqin millat vakillari istiqomat qiladi.

“Norin” atamasining kelib chiqishini tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy o‘zining “Sharafnomayi Shohiy” asarida quyidagicha ta’riflaydi: “Mog‘ullarning Do‘rmon qabilasi bo‘lib, to‘rt aka uka degani, ya’ni mo‘g‘ul tilida “to‘rt” deganidir. To‘rt aka uka kunlardan bir kuni boshqa viloyatlarni ham ko‘rish uchun sol yasab, daryodan o‘tib bir viloyatga kelishgan ekan. Ulardan birining ismi Norin bo‘lib, ular suzib o‘tgan o‘sha daryoga Norin nomini berishgan. Boshqa bir tarixchi olim E.Murzayev Norin mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, “Nar” (Naran) – “Quyosh” so‘zi bilan aloqador, deb ta’kidlaydi. Mo‘g‘ullar daryo suvining rangiga nisbatan shunday deb ataganlar.

Norin daryosi Markaziy Osiyodagi eng uzun daryo – Sirdaryo uchun eng muhim suv manbai hisoblanadi. Norin daryosi Qirg‘iziston hududidagi Tyan-Shan tog‘ining eng baland muzligidan boshlangan, Norin tumanining ko‘p qishloqlari shu daryo bo‘yida joylashgan. Qoradaryo va Norin daryosi qo‘shilganidan keyin Sirdaryo hosil bo‘ladi. Bu daryo nomi arablar istilosigacha “Xaylam” deb atalgan hamda uning qirg‘og‘ida shunday nomdagi shahar ham mavjud bo‘lgan. Xaylam shahri “Miyonrudak” muzofotining bosh shahri hisoblanib, u haqidagi manbalar asosan arab tarixchilarining asarlaridir. Jumladan, arab tarixchisi va geografi Ibn Xavqal o‘zining “Kitob sur’at ul-ard” asarida Miyon-Rudon muzofotining bosh shahri Xaylam shahri bo‘lganligini tasdiqlaydi¹. Bu asarni ilmiy jihatdan o‘rganib chiqqan sharqshunos olim V. Bartold “Xaylom” shahrining nomi “Xatlom” va “Xayrlom” shaklida ham qayd etilgan. Bu viloyatning turkcha nomi “ikki suv orasi” bo‘lgan, chunki u Norin va Qoradaryo orasida joylashgan. “Moniso” tog‘idan oqib chiquvchi daryo Rudi-Xatlom deb atalgan. Bu hozirgi Norin daryosidir deb ma’lumot beradi.²

Norin tumanining qadimiy Cho‘ja qishlog‘i tuman markazidan sharqda joylashgan. Ba’zilar uni “Jo‘ja” deb ham atashadi. Qishloqning shimoliy qismidan Norin daryosi, janubdan esa Qoradaryo oqib o‘tadi. Shuning uchun bu qishloq ayrim ilm vakillari tomonidan “ikki daryo oralig‘idagi qishloq” deb ham ataladi. Mahalliy tarixchilardan ayrimlari, masalan, tarix fanlari nomzodi, arxeolog Q. Asqarov qishloqning tarixini miloddan avvalgi IV – III asrlarga to‘g‘ri kelishi haqida ma’lumot beradi. Darhaqiqat, Cho‘ja qishlog‘iga qo‘shti bo‘lgan qishloq – Uchtepa qishlog‘ida akademik A. Asqarov boshchiligida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari natijasida topilgan antik davrga tegishli ibodatxona qoldiqlari va odam suyaklari rostan ham Norin tumani tarixini ikki ming yildan kam emasligini isbotlab turibdi. Bu hudud yurtimizda Eftallar hukmronligi davrida eng rivojlangan davrlar bo‘lgan. Bu yerda

¹ Ибн Хавқал. Китоб Сурат ал-ард (Мовароуннахр). Тошкент: “Ўзбекистон миллий энсиклопедияси”Давлат илмий нашриёти, 2011. – Б.81.

² Бартольд В.В К истории орошения Туркестана // Соч, Т. III, - Москва, 1963. – С.119.

tabiblar joylashgan manzilgoh bo‘lib, qimmatbaho dorilar bilan birgalikda zaharlar ham tayyorlangan. Huddi shu davrdan boshlab tuman hududida rivojlanish jarayoni boshlangan, uning aholisi esa asosan o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Qadimgi davrda massagetlar, keyinchalik esa qoraqalpoqlar, qipchoqlar, eroniylar ko‘chib kela boshlagan. Lekin asosan massagetlar bu hududlarda yashab qolgan¹.

Farg‘ona vodiysi hududlarida Qo‘qon xonligi tashkil topganidan so‘ng Norin tumani hududlari ham shu davlat tarkibida qoldi. Qo‘qon xoni Xudoyorxon davrida qipchoq qabilalarining xonlik hududiga ko‘chib kelish jarayoni kuchaydi. Shu davrdan boshlab Qo‘qon xonligi bosh vaziri mingboshi Musulmonqul Sirdaryo, Norin, Qoradaryo bo‘ylab yashash uchun qulay bo‘lgan suv bo‘ylari, suvgaga yaqin yerlarni ajratib berdi. Asli kasbi jangchilar va chorvador qabila bo‘lgan qipchoqlar vaqtlar o‘tishi bilan o‘troqlashib, dehqonchilikni o‘zlashtirganlar. Qipchoqlarning yoshuq, sirmoq, jaydoq, yetti qashqa, elatan kabi urug‘larining nomi bugungi kunda ham Norin tumanidagi ayrim qishloqlarining toponimikasiga asos bo‘lib qolgan. Dala tadqiqotlariga ko‘ra, tuman aholisining yetmish foizdan ko‘pi o‘zlarining qipchoqlardan ekanligini ta’kidlaydi.

Tuman hududlariga o‘zga millat vakillari ham asta-sekinlik bilan joylasha boshladi. Masalan, XVI asrdayoq bir qancha qirg‘iz urug‘lari Farg‘ona vodiysi hududiga kelib o‘rnashganlar. XVII – XIX asrlar mobaynida Farg‘ona viloyatining tog‘, tog‘oldi, adir yonbag‘irlaridan ko‘plab qirg‘iz urug‘lari o‘z chorvalari uchun yaylov sifatida foydalanganlar va ularning ma’lum qismi o‘troqlashuv jarayonida ushbu joylarda o‘z qishloqlarini tashkil etganlar. Bu yerga asosan, Tyanshan, Chotqol, Oloy, Qorategin va Qoshg‘arda yashayotgan qirg‘izlar kelib o‘rnashganlar. O‘tmishda qirg‘izlar ham barcha ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi xalqlar kabi urug‘-qabilaviy tuzilishga ega bo‘lgan.

Hozirgi kunda ham Norin tumani aholisining bir qismini qirg‘iz millatiga mansub aholi tashkil etadi. Ularning asosiy qismi tumanning Toshloq va Qiziltov qishloqlarida istiqomat qilishadi. Tuman hokimligi statistik ma’lumotlariga ko‘ra Toshloq qishlog‘ida 570 nafar, Qiziltov qishlog‘ida esa 695 nafar qirg‘iz millatiga mansub aholi yashaydi.

Qozoq millatiga mansub aholi ham xuddi qirg‘iz millat vakillari kabi o‘z chorvalari bilan tuman hududiga kelib, shu yerda o‘troqlashadi. Hozirgi kunda Norin tumanining Qozoqovul qishlog‘ida qozoq millatiga mansub 72 nafar aholi istiqomat qilib kelmoqda.

Yurtimiz hududini ruslar tomonidan bosib olinganidan keyin slavyan xalqlari dehqonlarini “ko‘chirish” siyosatini olib bordi. Ularga dehqonchilik uchun eng qulay

¹ Mirzaboyev M., Abdumajidov R. Norin. "Fan". Toshkent, 2006. – B.13.

hududlar ajratib berildi. Farg‘ona vodiysi bo‘ylab temiryo‘l o‘tishi (1899) ham ushbu mintaqada rus tilli aholi sonining sezilarli darajada ko‘payishiga olib keldi. Endi bu hududga nafaqat dehqonlar, balki, temiryo‘l ishchi va xizmatchilari ham kela boshladи. Ushbu temiryo‘lning Norin tumani hududidan ham kesib o‘tishi natijasida bu yerda temiryo‘l ishchilariga ehtiyoj hamda Haqqulobod qishlog‘ida paxta zavodining ishga tushirilishi rusiyzabon mutaxassislari, zavod ishchilarining manzilgohlarini vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Norin tumanida bugungi kunda ham rus millatiga mnansub aholi istiqomat qilib kelmoqda. Ularning soni 184 nafarni tashkil etib, tuman aholisining 0.2 % foizini tashkil etadi. Rus millatiga mansub aholi tumanning Do‘stlik mahallasida g‘uj bo‘lib yashaydi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, tuman hududlari iqlimi va tabiiy sharoiti dehqonchilik uchun juda qulay. Manbalarning guvohlik berishicha, XIX asr oxirgi choragiga qadar butun Farg‘ona vodiysi bo‘ylab asosan donli ekinlar yetishtirilgan, bug‘doy va arpa ko‘p yetishtirilgan. Kuzgi bug‘doy va arpadan keyin yerning hosildorligi kamayib ketmasligi uchun yerga mahalliy o‘g‘itlar, jumladan, go‘ng, eski devor tuproqlarini sochilgan.

G‘alla ekiladigan yerlar kuzda shudgor qilinib, yer ot yoki qo‘s sh ho‘kiz yordamida haydalgan, omochning o‘zini yonboshlatib, qalin taxta mola bilan tekislangan. Iqlim sharoitlaridan kelib chiqib hosil iyun oyi boshlarida o‘roq yordamida o‘rib olingan. G‘alla boshoqlari xirrmonda yoyilib, ot, ho‘kiz yoki eshak yurgizilgan. Maydalangan don yog‘och panskha, keyin esa yog‘och kurak bilansovurilgan. Bug‘doy va arpadan tashqari donli ekinlardan jo‘xori, makkajo‘xori, dukkakli ekinlardan esa mosh, loviya, suv mo‘l joylarda sholi yetishtirilgan.

Chorvachilik ham tuman xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan. Chorvachilik bilan asosan qipchoq qabila va urug‘lari vakillari hamda Qiziltov va Toshloq qishlog‘ida yashovchi qirg‘izlar shug‘ullanganlar. Qipchoqlar asosan yilqichilik bilan shug‘ullanib, qorabayir otlarini boqish bilan birgalikda mavsumiy bayramlarda, to‘ylarda o‘zlarining zotdor otlari bilan uloq chogsanlar. Keksalarning ta’kidlashicha, bu xalq o‘yiniga qo‘sni tumanlar chavandozlaridan tashqari hozirgi Qirg‘izistonning taniqli abjisir chavandozlari ham ishtirok etgan.

Qo‘ychilik bilan asosan qirg‘izlar shug‘ullangan. Ularning ko‘p sonli qo‘y uyurlari erta bahordan kech kuzgacha keng yaylovlarda o‘tlab yurgan.¹ Vaqtlar o‘tib aholi sonining tabiiy ko‘payib, zichlik ortishi, dehqonchilik maydonlarining kengayishi natijasida yaylov maydonlari qisqarib, chorvachilik asosiy xo‘jalik

¹ Абдуллаев У. Фаргона водийсида этносларо жараёнлар. (XIX- XX аср бошлари). Тошкент: Yangi asr avlodи, 2005. – В. 88.

tarmog‘i bo‘lmay qoldi. Qo‘ychilik bilan shug‘ullangan qirg‘izlar ham tuman hududida o‘troqlashib, o‘zlarining doimiy turar joylarini qura boshladi. Shunga qaramay, bugungi kunda Norin tumanida yaylov chorvachiligi transformatsiyasi yuz berib, uy chorvachiliga almashdi. Hozir har bir qishloq xonadoni kamida bittadan o‘z chorva mollari yoki qo‘ylarini boqib kelmoqda.

Aholining an’anaviy turar-joylari tabiiy-geografik sharoiti bilan bog‘liq bo‘lgan. Uy-joy qurilishida ba’zi o‘ziga xosliklar saqlansa-da, umumiylar me’morchilik shakli keng tarqalgan bo‘lib, uylar odatda, ko‘cha va qo‘shti tomongan derazasiz qilib qurilgan. Barcha turar-joy binolari deraza oynalari ichkari tomonga qaratilgan. Nafaqat tuman, balki butun vodiy aholisining diniy aqidalarga qattiq amal qilishi, hovlidagi ayollarga birovning behos ko‘zi tushmasligi uchun uylar baland qilib guvala yoki paxsa devor bilan o‘rab olingan. Hattoki, ba’zi otliqlar ham devor bo‘ylab yurganda odob saqlab otdan tushib piyoda harakatlanganlar.¹ Respublikamizning ayrim hududlarida, masalan Jizzax viloyati Zomin tumani Yom qishlog‘i aholisi o‘z uylari atrofini devor bilan o‘rab olmaydilar. Buning sababi mahalliy aholi vakillaridan so‘ralganda qishloq aholisi barchasi bir-biriga yaqin qarindosh, o‘rtadagi devor qarindoshlar orasida oqibatni buzmasligi uchun devor bilan o‘rab olmaganliklarini ta’kidlashgan². Lekin, Norin tumanida istiqomat qilayotgan aholining katta qismi turli hududlardan ko‘chib kelib joylashganligi tufayli ham ularning bunday qilishlariga turtki bergen bo‘lsa kerak.

Dastlab uylar bir uy va bir dahliz qilib paxsa yoki xom g‘ishtdan qurbanlar. O‘tgan asrning boshida Andijon viloyatida sodir bo‘lgan zilzila natijasida paxsadan qurilgan juda ko‘p uylar vayron bo‘lishi natijasida mahalliy aholi uy devorlarini sinchdan qurishni boshlagan.³ “Yakka sinch” yoki “qo‘shtinch” usulida qurilgan uylar paxsa uylarga qaraganda bir necha marotaba mustahkam bo‘lgan. Uyning tomiga yog‘och tashlanib, ustiga namat yopilgan hamda somon loydan qalin qilib suvalgan. Har bahor faslida uy egalari uy tomini ta’mirlaganlar.

Uyning ichida o‘choq qurilgan bo‘lib, qish faslida bu o‘choqda taom tayyorlash bilan birgalikda uy ham isitilgan. Uyning ichi qish faslida ham yotoqxona, oshxona va omborxona vazifalarini bajargan. Vaqt o‘tishi bilan uy-joy qurilishida zamonaviylashib bordi. XIX asr o‘rtalaridan boshlab uylarning tomi tunuka yoki shiferlar bilan yopila boshlandi. Bugungi kunda mahalliy quruvchi ustalarning shahar markazlari (Andijon, Namangan, Toshkent) shaharlarida hamda boshqa chet davlatlarda – Rossiya federatsiyasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Janubiy Koreya kabi

¹ Dala yozuvlari. Axborotchi Po‘latov Akrom, o‘qituvchi, 54 yosh Norin tumani Yashik qishlog‘i. 2021-yil.

² Dala yozuvlari. Axborotchi Niyozmatov Vohid Ne‘matovich. Yom qishlog‘idagi 3-maktab direktori, o‘qituvchi. 2021-yil.

³ Хўжахонов И.М. Фарғона водийси қишлоқ аҳолиси анъанавий турар жойларининг этнохудудий хусусиятлари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тошкент, 2007-йил. – Б. 133.

davlatlarga borib ishlab, tajriba orttirishlari, zamonaviy qurilish ashyolarining ko‘payib borishi tufayli turar-joylar qurilishi texnologiyasi o‘zgarib bormoqda, uylar tobor go‘zallashib, mustahkam qilib qurilmoqda.

An’anaviy kiyimlar orasida erkaklar milliy liboslari alohida o‘rin tutadi. Kiyimlar yaxlit bichimli, to‘g‘ri, keng va uzun bo‘lib, eni buzilmagan bir bo‘lak mato yarmidan bir-biriga ulab uzunasiga tikilgan, yon qismi esa etagiga qarab kengayib borgan. Dastlab erkaklar ko‘ylagi uzun, tizzadan pastga, keyinroq esa belning yarmigacha qilib tushadigan qilib tikilgan. Erkaklar orasida bir nusxadagi to‘n, ko‘ylak-yaktak, ishton, do‘ppi, salsa, telpak, kovush-maxsi, etik, choriq va turli yordamchi kiyimlar kiyilgan.

Ayollar an’anaviy kiyim-boshlari ko‘ylak, lozim, cho‘pon, mursak, peshmat, kamzul, nimcha, paranji-chachvonlar hamda xilma-xil ro‘mollar va rang-baranglar do‘ppilardan iborat bo‘lgan. Maxsi-kovush va boshmoq kabi poyabzallar charmidan tikilgan, kalishlar esa rezinadan quyilgan. Ayollar kiyimlarining nafis va xilma-xil go‘zal bo‘lishiga mohir o‘zbek zargarlari tayyorlagan taqinchoq va zeb-ziynatlar yanada ko‘rk bag‘ishlagan.

XX asrning 50-70 yillarida sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar natijasida an’anaviy milliy kiyimlar tarkibiga yevropacha uslubdagi kiyimlar kirib kelgan. Buni milliy ko‘ylaklar bilan bir qatorda yevropacha shim bilan kiyiladigan kiyimlarda ham ko‘rish mumkin. Ayniqsa, yevropacha bichimdagи poyabzallar keng rasm bo‘lishiga qaramay, maxsi va etik kabi milliy oyoq kiyimlari o‘zining an’anaviy ko‘rinishini saqlab qolgan va asosan, keksalar orasida ko‘proq tarqalgan.

Xulosa qilib aytganda, tuman hududida yashab kelayotgan turli millat va elatlarning asrlar davomida etnomadaniy jarayonlar hudud etnografiyasiga, madaniyati, turar-joylari, kiyim-kechaklari, taomlari, xo‘jalik shakllariga ham ta’sir etgan va hozirgi kunda ham ta’sir etib kelmoqda. Yurtimiz etnografiyasini teran o‘rganish mintaqadagi an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar xususiyatlari hamda yo‘nalishlarini aniqlashtirish va mazkur e’tiqodning jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o‘ziga xos o‘rnini ko‘rsatib berishga yaqindan yordam berishi shubhasizdir.

Bugungi kunda butun yurtimiz bo‘ylab olib borilayotgan etnik siyosat natijasida tuman aholisining o‘zga millat vakillariga ham yashash, bilim olishlari, ma’naviy-madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarini saqlab qolishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Davlat maktablarida ta’lim tili rus tili va o‘zbek tilida olib borilmoqda. Ularning diniy qadriyatlarini saqlab qolishlari uchun davlat organlari va mahalliy aholi tomonidan hech qanday bosim o‘tkazilmaydi. Milliy urf-odatlari, bayramlarini o‘tkazish uchun esa tuman markazidagi madaniyat markazi faoliyat yuritib kelmoqda.

Norin tumani aholisi turli millatlardan iborat ekanligi bugungi kunda aholi orasidagi totuvlikka zarracha ta’sir ko‘rsatmaydi. Ularning ancha yillar davomida

yashab, o‘zbek tilini mukammal bilishi, ular bilan quda-anda bo‘lib, qarindosh urug‘chilik munosabatlarini o‘rnatgaliklari, O‘zbekistonni umumiylashtirish deb tan olishlari va ushbu hududda yashayotganliklaridan faxrlanishlari yuqoridagi fikrga dalil bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. ЎзМЭ. Биринчи жилд. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энсиклопедияси”Давлат илмий нашриёти, 2000.
2. Ибн Хавқал. Китоб Сурат ал-ард (Мовароуннахр). Тошкент: “Ўзбекистон миллий энсиклопедияси”Давлат илмий нашриёти, 2011.
3. Бартольд В.В К истории орошения Туркестана // Соч, Т. III, - Москва, 1963.
4. Mirzaboyev M., Abdumajidov R. Norin. "Fan". Toshkent, 2006.
5. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. (XIX- XX аср бошлари). Тошкент: Yangi asr avlodi, 2005.
6. Хўжахонов И.М. Фарғона водийси қишлоқ аҳолиси анъанавий турар жойларининг этнохудудий хусусиятлари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тошкент, 2007-йил.